



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 14-noyabr

645-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Idoralararo kollegial organlar faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-oktabrdagi PF–168-son Farmoni ijrosi haqida”gi 545-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Idoralararo kollegial organlar faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 25-oktabrdagi PF–168-son Farmoni hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 545-6-0-Q/24-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 11-noyabrdagi 545-6-0-Q/24-son qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF–168-son Farmoni bilan:

Quyidagilar:

Rahbarlari qayta taqsimlanayotgan idoralararo kollegial organlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2024-yil 1-noyabrdan boshlab tugatilayotgan idoralararo kollegial organlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga ko‘ra:

idoralararo kollegial organlar respublikada shakliga ko‘ra doimiy faoliyat yurituvchi (Respublika komissiyasi, kengash, qo‘mita) va vaqtincha faoliyat yurituvchi (ishchi guruh, ishchi komissiya) idoralararo kollegial organlar sifatida tashkil etiladi;

idoralararo kollegial organlarni tashkil etish to‘g‘risidagi hujjatlarda ularning faoliyatini tashkil etish va qarorlar ijrosini nazorat qilish bo‘yicha ishchi organ belgilanadi;

vaqtincha faoliyat yurituvchi idoralararo kollegial organlarni tashkil etish to‘g‘risidagi hujjatlarda ularning faoliyat muddati, amalga oshiriladigan tadbirlar mexanizmi aniq ko‘rsatiladi, muddat yakunlanganidan so‘ng tegishli idoralararo kollegial organ tugatilgan hisoblanadi va bu bo‘yicha alohida hujjat qabul qilinishi talab etilmaydi;

ishchi organ qonunchilik hujjatlariga muvofiq, idoralararo kollegial organlarning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni (tadbirkorlik faoliyati, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga hamda atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi masalalar) o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirish va yangilab borish yo‘li bilan ularning faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish choralari ko‘rishi;

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning hududiy bo‘linmalari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklangan vazifalarning to‘liq hajmda va sifatli bajarilishini ta‘minlash maqsadida:

idoralararo kollegial organlar tarkibiga tegishli sohaga aloqador bo‘lmagan a‘zolari kiritishi;

idoralararo kollegial organlar a‘zolariga ularning faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lmagan vazifalarni yuklash qat‘iyan taqiqlanganligi;

belgilanishicha, Adliya vazirligi 2024-yil 1-noyabrdan boshlab respublika darajasida faoliyat yuritayotgan idoralararo kollegial organlarning reestri “Davlat funksiyalari” avtomatlashtirilgan onlayn

axborot tizimi orqali yuritilishini yo'lga qo'yishi va mazkur reestrni doimiy yangilab borishi hamda uning nazoratini ta'minlashi;

Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlaridan tashqari boshqa budjet tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalarga) ega bo'lgan xodimlarga qonunchilikda belgilangan har oylik qo'shimcha ustama miqdori fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalarga) ega bo'lgan xodimlar uchun lavozim maoshining 5 foizi hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan darajaga) ega bo'lgan xodimlar uchun lavozim maoshining 10 foizi miqdorida qayta belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlari 4-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining sohalar bo'yicha barcha o'rinbosarlari, tegishli idora va tashkilotlar rahbarlari uch oy muddatda joylardagi idoralararo kollegial organlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktabrdagi PF-168-son Farmoni 1- va 2-ilovalarga muvofiqlashtirish choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov